

QONUNIY AJRAMASDAN UYLANSA QANDAY JAVOBGARLIK BOR?

O'narboyev Samandar

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida nikohdan o'tishning va ajrashishning qonuniy tartibi, qonuniy ajramasdan turib shariy nikoh asosida boshqa ayol bilan turmush qurishning huquqiy oqibatlari, shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari muhokama etilgan. Shu bilan birgalikda ayrim statistik ma'lumotlar va nikoh qurishning shar'iy qonun qoidalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shar'iy nikoh, qonuniy nikoh, "Niso" surasi, ko'p xotinlilik, jinoiy javobgarlik, umumiy ro'zg'or, ma'muriy javobgarlik, "muallaq ayol", dekriminalizatsiya.

КАКОВА ОТВЕТСТВЕННОСТЬ, ЕСЛИ БРАК НЕ ЯВЛЯЕТСЯ ЮРИДИЧЕСКИМ РАЗВОДОМ?

Онарбаев Самандар

Студент 4 курса факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в статье рассматриваются правовая процедура заключения и расторжения брака в Республике Узбекистан, правовые последствия вступления в брак с другой женщиной на основе шариатского брака без законного развода, а также применяемые к физическим лицам санкции. Одновременно были проанализированы некоторые статистические данные и положения шариата о браке.

Ключевые слова: шариатский брак, законный брак, сура «Ниса», многоженство, уголовная ответственность, общее имущество,

административная ответственность, «подвешенная женщина»,
декриминализация.

WHAT IS THE RESPONSIBILITY IF A MAN MARRIES WITHOUT A LEGAL DIVORCE?

Onarboyev Samandar

4th year student of the Faculty of Criminal Justice, Tashkent State University of Law

Abstract: *this article discusses the legal procedure for marriage and divorce in the Republic of Uzbekistan, the legal consequences of marrying another woman without a legal divorce, and the penalties applied to individuals. At the same time, some statistical data and the provisions of Sharia law on marriage are analyzed.*

Keywords: *Sharia marriage, legal marriage, Surah "Nisa", polygamy, criminal liability, common property, administrative liability, "suspended woman", decriminalization.*

Avvalambor, nikoh so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, “nikoh” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, lug‘atda “Qo‘shilish”, “Yaqinlik” ma‘nolarini anglatadi [1]. Hozir kunda ushbu so‘zga sifat berilgan holda “qonuniy nikoh” va “shar‘iy nikoh” kabi tushunchalar shakllantirilgan. Ushbu tushunchalarning ma‘nosi barchamizga ma‘lum va alohida izoh berishga hojat yo‘q deb o‘ylaymiz.

Bir kishi xotini, ya‘ni qonuniy nikohida turmush o‘rtog‘i bo‘la turib boshqa ayolga qonuniy yo‘l bilan uylana olmaydi. Negaki O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 16-moddasida loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishi mumkin emasligi ko‘rsatilgan [2]. Sodda qilib aytganda ayol kishi ham, erkak kishi ham boshqa shaxs bilan tuzilgan nikohidan qonuniy tartibda ajramasdan boshqa shaxs bilan

qonuniy turmush qura olmaydi. Hozirgi kunda erkak kishilar qonuniy nikohida ayoli bo'la turib boshqa ayol bilan shar'iy nikohdan o'tib yashashi holatlarini yurtimizda yetarlicha mavjud ekanligi hech birimizga sir yokida yangilik bo'lmasa kerak.

Shu o'rinda barchada "Qonuniy nikohdan ajramasdan turib boshqa ayol bilan shar'iy nikoh tuzib, bir oila bo'lib yashash mumkinmi?" degan savol vujudaga kelishi mumkin. Javob esa – yo'q, mumkin emas. Bu uchun qonunda jabgarlik bor. Aniqroq qilib ayatdigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (Keyingi o'rinlarda – JK) 126-moddasiga muvofiq, ko'p xotinli bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash jinoyat hisoblanadi va ushbu modda bilan aybdor deb topilgan shaxsga quyidagi jazolardan biri berilishi mumkin: bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish [3]. Ushbu modda bilan shaxs qachonki ikki yoki undan ortiq ayolga uylansa va ikki va undan ortig'ini moddiy jihatdan ta'min etib, pul mablag'lari sarfi ayni bir xo'jilkdan bo'lsa shaxs aybdor deb topiladi. Xususan, "ro'zg'or" so'zining etimologiyasiga qarasak, ushbu so'z fors tilidan kelib chiqqan bo'lib "ro'z" – kun hamda g'or – bu qadimda qabilalar (insonlar) uchun uy, ombor, qisqasi xo'jalik yuritadigan joy bo'lgan. Hozirgi kunda "ro'zg'or" - bu kun kechirish uchun sarf-xajatlarning umiy ma'nosidir.

Shu bilan birgalikda aytish joizki, qonuniy nikohdan o'tmagan shaxslarni diniy (shar'iy) jihatdan nikohlagan shaxslar ham javobgar bo'ladi bunda avval ular dastlab ma'muriy javobgarlikka tortiladilar [4] hamda bir yil ichida ayni shu

qilmishni takror sodir etsalar jinoiy javobgarlikka ham tortilishlari qonunchilikda belgilangan.

Yuqoridagi normalar bilan davlatimiz xalq vakillarini ko‘p xotinli bo‘lishlikdan qaytaradi va bu ishni qoralaydi. Biroq davlatimiz aholisining asosiy qismi Islom diniga e‘tiqod qiladi. Xususan ayrim manbalarda O‘zbekiston aholisining 96%dan ortiq qismi [5] Islom diniga etiqod qilishini ko‘rsatmoqda. Bu ma‘lumot aynan to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin, biroq deyarli aniq, ya‘niki mamlakatimiz aholisining kamida 94% Islom dini vakillari deb aytishimiz mumkin. Islom dinining asosi va muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimning “Niso” surasi 3-oyatida Alloh taolo aytadiki: “Bas o‘zingiz xush ko‘rgan ayollardan ikki, uch, to‘rtini nikohlab oling. Agar adolat qila olmaslikdan qo‘rqsangiz, bittani”. Demak, agar adolat qilishiga ishonchi komil bo‘lsa va shu majburiyatni bo‘yniga olishga qodir bo‘lsa bir erkak to‘rttagacha ayolni o‘z nikohiga olishiga Alloh izm bergan va bunga chek qo‘yish va qarshi gapirish musulmonlar uchun mutlaqo mumkin emasdir. “Xotinlar o‘rtasida adolat - ko‘p xotinli erning xotinlariga nisbatan qalbidagi muhabbati borasidadir. Ya‘ni, ko‘nglingizda muhabbati o‘rnashgan ba‘zi xotiningizga bir yo‘la moyil bo‘lib ketib, xotinlaringizning ba‘zisini muallaq ayolga o‘xshatib qo‘ymang. “Muallaq ayol” deb xotin bo‘lib xotin emas, boshi ochiq bo‘lib, boshi ochiq emas, arosat bir holda qolgan ayolga aytiladi. Bunday muallaqlik azob, shuning uchun oyati karima (“Niso” surasi 129-oyat) erni bu masalada adolatli bo‘lishga chorlamoqda. Ko‘p xotinli er yaxshi ko‘rgan xotini bilan doimo birga bo‘lib, boshqasini tark etsa, shariatga hech to‘g‘ri kelmaydi”. Ko‘p xotinlikning taqiqlanishida har kim ham adolat qila olmasligi, aholining demografik jihatlari va ayollarning haq-huquqlari muhim ro‘l o‘ynagan deb bilamiz. Balkim keyinchalik bu norma o‘zgarishi va

Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlanishi (dekriminalizatsiya) va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdan o'rin olishi ham mumkin, negaki ko'pchilik aynan shunday bo'lishini taklif qilishmoqda va taxmin qilishmoqda. Qolaversa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasiga ko'ra davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi qayd etilgan [6]. Ko'p xotinlikning davlat tomonidan taqiq etilish jamiyatning xohish-irodasi ekanligini va ko'pchilikning fikri kamchiliknikidan ustun ekanligi ko'p xotinli bo'lishning jinoyat deb belgilanishining asosiy sababidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. <https://lex.uz/docs/-104720#-158639>.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453#-262088>.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/ru/docs/-97664#-198010>.
4. <https://countrymeters.info/ru/Uzbekistan>.
5. <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=4>.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445717>